

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKAUNIVERSITETI

## Zamonaviy ta'lif va ma'nnaviy-axloqiy tarbiyaning dolzARB masalalari

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

2024 yil 17-oktyabr

**“Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzARB masalalari”  
mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi.  
Toshkent.: 2024 yil. 17-oktyabr.**

Mazkur to‘plamda respublikamiz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash: kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o‘qituvchisini taylorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o‘qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir: F.O. Mirzaeva** – Pedagogika kafedrasи mudiri, dotsent

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

Pedagogika fanlari doktori professor - Sh.Shodmonova

Pedagogika fanlari doktori professor - A.Muxsiyeva

**Taqrizchilar:**

**M.B.Urazova** – pedagogika fanlari doktori professor

**M.T.Mirsoliyeva** – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Sahifalovchi - **G.X. Narzullayeva** - 1-kurs magistranti.

*Anjuman materiallari Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining  
2024 yil 17-oktyabrdagi 4 –sonli bayonnomasи bilan nashrga tavsiya  
etilgan.*

To‘plamga kiritilgan maqolalarining mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi, stilistik va orfigrafik xatolar uchun mualliflar mas’ul.

4. O'yin orqali ta'lif olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., T.2020

5. S.X. Jalilova, S.M. Aripova «Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi» Toshkent 2017

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA TEATR SAHNALASHTIRISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Maripova Nodira Xamidovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lif metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi [maripovanodira@gmail.com](mailto:maripovanodira@gmail.com)

**Akromaliyeva Madina Jaxongir qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lif fakulteti  
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi [akromovamadina@gmail.com](mailto:akromovamadina@gmail.com)

Tayanch so'zlar: sahnalashtirish, teatr, tarbiya, ijodiy, rivojlantirish, ko'nikma

Ключевые слова: постановка, театр, образование, креатив, разработка,

навык

Key words: staging, theatre, education, creative, development, skill

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning maqsadi - ta'lif sohasini tubdan isloq qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida , yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Bu esa, o`z navbatida, ta'lif jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi.

Ta'lif sohasini isloq qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lif tizimini isloq qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Shu o'rinda Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning so'zlarini aytib o'tish joiz: “Biz qaysi sohani olmaylik, zamonaviy, yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan biron-bir o'zgarishga farovon hayotga erisholmaymiz”. Shunday ekan, hozirgi kunda maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun bor e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarda yuqorida ko'rsatilgan sifatlarni rivojlantirishda “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish” fanining o'rni beqiyosdir.

“Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish” fanining asosiy vazifalaridan biri bu bolani ma'naviy tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lif yoshi-

bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim davrdir. Ushbu davrda bolalar uchun o'yin va ijodiy faoliyat, shu jumladan teatr sahnalashtirish alohida ahamiyatga ega. Teatr sahnalashtirish faoliyati nutq ifodaliligin shakllantirish , intelektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Teatr ,san'at va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajoyib platforma hisoblanadi. Bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalash va yangi g'oyalar bilan ishslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Teatr sahnalashtirishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati:

1.Teatr sahnalashtirish: bolalarga turli xarakterlarni o'zlashtirish, ularning hissiyotlarini tushunish va ifoda etish imkonini beradi. Bu jarayon bolalarning empatiya hissini oshiradi va ularning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Lev Vygotskyning fikricha, ‘‘Teatr bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi, chunki u bolalarga o'zaro munosabatlar va hissiy tajribalarni o'rghanishga yordam beradi’’. Ha, albatta, chunki teatr orqali bolalar o'zaro munosabatga, rollarga kirishishni va o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni o'rghanadilar.

2. Ijodiy fikrlash: teatr sahnalashtirish jarayonida bolalar ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Ular qahramonlarni yaratish, sahna harakatlarini rejorashtirish va o'z ijodini amalga oshirish orqali o'zlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Teatr orqali bolalar ijodiy fikrlash va muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar” –deydi Jerome Bruner. Albatta, bu juda muhim. Teatrda bolalar turli xarakterlar va vaziyatlar orqali ijodiy yondashuvni o'rghanadilar.Har bir rolni ijro etish jarayonida ular yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni o'rghanadilar.

3.Til va muloqot ko'nikmalari: Teatr sahnalashtirish orqali bolalar nutqini rivojlantirish , yangi so'zlarni o'rghanish va muloqot qilish qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon , shuningdek , tinglash va tushunish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.

4.Jamoaviy ish ko'nikmalari: teatr sahnalashtirish bolalarga jamoada ishslash, bir-biriga yordam berish va o'zaro munosabatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ular birgalikda sahna ko'rinishlarini tayyorlash orqali hamkorlik va jamoa ruhini o'rghanadilar.

Maria Montessori aytganidek, “Bolalar o'zlarini ifoda etish va yaratuvchanlikni rivojlantirish uchun amaliy tajribalarni talab qiladi, teatr esa bunga ajoyib imkoniyatlar taqdim etadi”, ha, teatr bu jarayonda juda muhim ro'l o'ynaydi. Teatr orqali bolalar o'z hissiyotlarini, fikrlarini va o'z g'oyalarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonda ular o'yin va ijodiy yondashuvlar orqali o'zlarini erkin namoyon etishadi.

5.O’z-o’zini anglash va ishonch: teatr faoliyati bolalarda o’z-o’zini anglashni oshiradi. Sahna oldida chiqish va o’zini ifoda etish, bolalarga o’z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishda yordam beradi. Bu o’z navbatida, kelajakda o’zini yanada erkin his qilishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, teatr sahnalashtirish jarayoni mактабгача та’лим yoshdagi bolalarni komil inson bo’lib voyaga yetishlari uchun ta’lim –tarbiyaviy muhitni boyitadi .Yana shuni ta’kidlab o’tish kerakki, mактабгача та’лим yoshidagi bolalarda teatr sahnalashtirish nafaqat o’yin-kulgi, balki, ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, mактабгача та’лим tashkilotlarida teatr faoliyatini rivojlantirish va qo’llab –quvvatlash juda muhimdir.

### **FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2019 yil 29 aprel, PF-5712- son.

2.Z.S.TESHABAYEVA .Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatish” 2021

3.Abduqodirova.N.X . JDPI MTMda sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.

4.Akhmedov.Sh (2020) “Teatr va ta’lim:Yangi imkoniyatlar”

5.Lev Vygotsky (1978) “Mind in Society:The Development of Higher Psychological Processes”

6.Davronov.I (2020) MT da teatr san’ati:nazariya va amaliyot. Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.

7.Bruner.J.S (1966) “Toward a Theory of Instruction”

8.Ismoilova M.(2019) Teatr va bolalar: Ijodiy rivojlanishning yangi yo’llari.Samarqand Davlat Universiteti.

9.Sirojiddinova N(2020) Teatr sahnalashtirish va bolalar psixologiyasi .Buxoro Davlat Universiteti

10.Montessori M .”The Secret of Childhood” 11.Toshpulatova D.(2022) Mактабгача та’limda jamoaviy faoliyat :Teatr va ijodiy ishlар.Farg’она Davlat Universiteti.

12.Xudoyberdiyev A.(2021) Teatr faoliyatining mактабгача та’limiga ta’siri.Qoraqalpog’iston Davlat Universiteti)

13. Methodology for teaching the image of a portrait of preschool childrenMaripova Nodira Khamidovna - Academic research in educational sciences, 2020 Cited by 1 Related articles All 2 versions

Xolmatova Salima Kuziboyevna, Xasanova Ruhshona Farhodovna, Kenjabayevna Nafisa G'ayratovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SANASH FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	835
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Rahmonqulova Anora Orifjon qizi, Xolmurodova Gulshoda Zafarovna MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	839
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Olimova Zamira Mingyasharovna, Jiyanova Gulzira Normuminovna INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI	842
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Sholpanova Aygerim Marxabayevna TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM ISHLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	847
Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Yulchiyeva Navro'za Alisher qizi MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	851
Maripova Nodira Xamidovna, Akromaliyeva Madina Jaxongir qizi MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA TEATR SAHNALASHTIRISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI	855
Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Xursanova Fotima Orifjonovna, Xamrayeva Zuhra MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	858
Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Ulasheva Dilara Botir qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLATIRISHNING TASHKILIY PEDAGOGIK VA METODIK JIHATLARI	861